



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

No 1

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

**1-jild
1-son
yanvar, 2026**

**January, 2026
Volume 1
Number 1**

**ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал**

**INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal**



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

Каршинский государственный технический университет

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук, профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в электронной форме и публикуется через официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал «Инновационная экономика» включён в перечень национальных научных изданий на основании решения Президиума Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 5 апреля 2025 года № 369.

В журнале публикуются статьи по следующим рубрикам:

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик (Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор (Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор, (Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик (НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор (Таджикистанский аграрный университет им. Ш. Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент (Национальный исследовательский университет «Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник (Российского университета дружбы народов имени П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент (Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н., профессор (Национальная академия наук Республики Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор (Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор, академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DCs), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DCs), доцент

Бобоккулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)



Inson kapitali iqtisodiyoti
Economics of human capital
Экономика человеческого
капитала



UDK 331.56:330.34

<https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.1.1.2026.24>

ISHSIZLIKNING IJTIMOY-IQTISODIY OQIBATLARI VA UNI BARTARAF ETISHNING SAMARALI MEKANIZMLARI

*Qulmurotov Sohijjon Jumaniyozovich
Sayimova Nilufar Hamidulla qizi*

СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПОСЛЕДСТВИЯ БЕЗРАБОТИЦЫ И ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕХАНИЗМЫ ЕЁ ПРЕОДОЛЕНИЯ

*Кулмуротов Сохибжон Жуманиезович
Саимова Нилуфар Хамидулла кизи*

SOCIO-ECONOMIC CONSEQUENCES OF UNEMPLOYMENT AND EFFECTIVE MECHANISMS FOR ITS REDUCTION

*Qulmurotov Sokhibjon Jumaniyozovich
Saimova Nilufar Xamidulla kizi*

Received: January 2, 2026 Revised: January 6, 2026 Accepted: January 11, 2026 Published: February 1, 2026

Annotatsiya. Ushbu maqolada ishsizlik muammosining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta'siri tahlil qilinadi. Ishsizlikning yuqori darajasi aholi turmush darajasining pasayishi, ishlab chiqarish hajmining qisqarishi hamda ijtimoiy barqarorlikning izdan chiqishiga olib kelishi ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, aholi bandligini oshirish va ishsizlikni kamaytirishda davlat siyosati, tadbirkorlikni rivojlantirish hamda kasbiy tayyorlash tizimining ahamiyati ko'rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari bandlik siyosatini takomillashtirish va samarali strategiyalar ishlab chiqishda ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Ishsizlik, aholi bandligi, mehnat bozori, ishchi kuchi, iqtisodiy faollik, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, iqtisodiy barqarorlik, davlat bandlik siyosati, tadbirkorlikni rivojlantirish, kichik va o'rta biznes, yangi ish o'rinlari, daromadlar darajasi, kambag'allikni qisqartirish, ijtimoiy barqarorlik, kasbiy tayyorlash va qayta tayyorlash.

Аннотация. В статье анализируется влияние безработицы на социально-экономическое развитие. На научной основе показано, что высокий уровень безработицы приводит к снижению уровня жизни населения, сокращению объемов производства и нарушению социальной стабильности. Также раскрыта значимость государственной политики, развития предпринимательства и системы профессиональной подготовки в повышении занятости и снижении безработицы. Результаты исследования имеют научно-практическую значимость для совершенствования политики занятости и разработки эффективных стратегий.

Ключевые слова: Безработица, занятость населения, рынок труда, рабочая сила, экономическая активность, социально-экономическое развитие, экономическая стабильность, государственная политика занятости, развитие предпринимательства, малый и средний бизнес, создание новых рабочих мест, уровень доходов, сокращение бедности, социальная стабильность, профессиональная подготовка и переподготовка.

Abstract. This article analyzes the impact of unemployment on socio-economic development. It scientifically substantiates that a high level of unemployment leads to a decline in living standards, a reduction in production volumes, and a disruption of social stability. In addition, the importance of state policy, the development of entrepreneurship, and the vocational training system in increasing employment and reducing unemployment is highlighted. The research findings have scientific and practical significance for improving employment policy and developing effective strategies.

Keywords: Unemployment, employment of the population, labor market, workforce, economic activity, socio-economic development, economic stability, state employment policy, entrepreneurship development, small and medium-sized enterprises, job creation, income levels, poverty reduction, social stability, vocational training and retraining.

■ KIRISH

Ishsizlik muammosi zamonaviy iqtisodiyot
sharoitida har bir davlat uchun dolzarb bo'lgan eng



muhim ijtimoiy-iqtisodiy masalalardan biri hisoblanadi. Aholining to'liq band bo'lmashligi iqtisodiy resurslardan samarali foydalanilmasligiga olib kelib, ishlab chiqarish hajmining qisqarishi, aholi daromadlari darajasining pasayishi hamda ijtimoiy barqarorlikning susayishiga sabab bo'ladi. Shu bois, ishsizlik nafaqat iqtisodiy, balki keng ijtimoiy oqibatlariga ega bo'lgan muammo sifatida ham namoyon bo'ladi. Yuqori ishsizlik darajasi aholi turmush darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatib, iste'mol va investitsiya faolligining pasayishiga, kambag'allikning kuchayishiga hamda jamiyatda ijtimoiy nomutanosiblikning ortishiga olib keladi. Xususan, hududlar kesimida bandlik darajasidagi tafovutlar iqtisodiy rivojlanishdagi nomutanosibliklarni yanada chuqurlashtiradi. Shu bois, mehnat bozoridagi mavjud holatni kompleks tahlil qilish va ishsizlikni qisqartirishga qaratilgan samarali mexanizmlarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

So'nggi yillarda aholi bandligini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish hamda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash orqali ishsizlikni kamaytirishga qaratilgan izchil davlat siyosati amalga oshirilmoqda. Shuningdek, ta'lim tizimi va kasbiy qayta tayyorlash dasturlarining mehnat bozori ehtiyojlariga mos kadrlar tayyorlashdagi o'rni tobora ortib bormoqda. Biroq mazkur chora-tadbirlarga qaramay, mehnat bozorida mavjud muammolarni samarali bartaraf etish uchun chuqur ilmiy tahlil hamda asoslangan amaliy takliflarni ishlab chiqish zarur. Mazkur maqolaning maqsadi ishsizlikning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini kompleks tahlil qilish hamda aholi bandligini oshirish va ishsizlikni qisqartirishga qaratilgan samarali yo'nalishlarni aniqlashdan iborat.

■ ADABIYOTLAR SHARHI

Ishsizlik va uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari masalasi iqtisodiyot fanida uzoq yillardan buyon ilmiy tadqiqotlar ob'ekti bo'lib kelmoqda. Klassik iqtisodiy nazariya vakillari A.Smit [1] va D.Rikardo [2] bozor mexanizmlari sharoitida mehnat bozorining shakllanishi, ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasidagi muvozanat masalalarini nazariy jihatdan asoslab berganlar. Ularning ilmiy qarashlari mehnat bozorining erkin faoliyat yuritishi va ish haqi shakllanishining bozor mexanizmlariga tayanganligini ko'rsatadi. Keyingi davr iqtisodchi olimlari A.Marshall [3] va I.Fisher [4] mehnat bozori muvozanati, ish haqi darajasi hamda bandlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqurroq tahlil qilib, ishsizlik masalasini mikroiqtisodiy yondashuv asosida izohlab berganlar. D.Keyns [5] va P.Samuelsan [6] asarlarida esa ishsizlikning makroiqtisodiy sabablari, uning iqtisodiy o'sish va bandlik darajasiga ta'siri hamda davlatning faol bandlik siyosatini yuritish zarurligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Ushbu nazariy yondashuvlar mehnat bozori va ishsizlikni o'rganishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

So'nggi yillarda ishsizlikning ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlari hamda uni kamaytirish strategiyalariga bag'ishlangan ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu tadqiqotlar natijalarida ishsizlik darajasining oshishi ishlab chiqarish hajmining qisqarishi, aholi real daromadlarining pasayishi va iqtisodiy o'sish sur'atlarining sekinlashuvi bilan bevosita

bog'liqligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Xususan, makroiqtisodiy tahlillarda keng qo'llaniladigan Okun qonuniga ko'ra, ishsizlikning ortishi yalpi ichki mahsulot hajmining pasayishiga olib keladi. Mazkur holat ishsizlikning iqtisodiy samaradorlikka putur etkazishi hamda makroiqtisodiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

O'zbekiston mehnat bozoriga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarda ishsizlikning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari hamda uning iqtisodiy xavfsizlikka ta'siri masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, rasmiy statistika ma'lumotlari asosida 2020–2025-yillar davomida rasmiy va norasmiy bandlik hamda ishsizlik ko'rsatkichlarining dinamikasi, shuningdek, hududlar kesimidagi tafovutlar tizimli tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari rasmiy ishsizlik darajasining bosqichma-bosqich qisqarishiga qaramay, norasmiy bandlik ulushining nisbatan yuqori saqlanib qolayotgani mehnat bozorida hali ham institutsional va tarkibiy muammolar mavjudligini ko'rsatishini aniqlagan. Shuningdek, iqtisodiy faollik va investitsiya salohiyati yuqori bo'lgan hududlarda ishsizlik darajasi nisbatan past, iqtisodiy imkoniyatlari cheklangan hududlarda esa yuqoriroq ekanligi rasmiy ma'lumotlar bilan tasdiqlangan. R.A.Abdukarimovanning [7] ilmiy ishlarida O'zbekiston Respublikasida aholi bandligi, hududlar kesimida bandlarning rasmiy va norasmiy sektorlar, davlat va nodavlat sektorlar bo'yicha taqsimlanishi, shuningdek, ishsizlik darajasi bo'yicha tahliliy ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu tadqiqotlar mamlakat mehnat bozoridagi mavjud holatni baholashda muhim ilmiy manba hisoblanadi.

Xalqaro tajribada Jahon bankining *Jobs and Growth* yondashuvi ishsizlik va bandlik muammolarini global iqtisodiy rivojlanish kontekstida tahlil qilishga qaratilgan konseptual asos sifatida e'tirof etiladi. Mazkur yondashuvga ko'ra, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda yangi ish o'rinlarini yaratish, mehnat resurslari malakasini oshirish, ayniqsa yoshlar bandligini kengaytirish hamda ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash muhim ustuvor yo'nalishlar hisoblanadi. Jahon banki tadqiqotlari ushbu omillar bandlik darajasining oshishi, daromadlar barqarorligi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ilmiy jihatdan asoslab beradi. [8] Ushbu yondashuvda texnologiya va raqamli iqtisodiyot yangi ish o'rinlarini yaratishda muhim imkoniyatlar berishi, past malakali ishchilar, ayollar va yoshlar esa eng zaif guruhlar sifatida qaralishi ta'kidlanadi [9].

Mazkur ilmiy manbalar ushbu maqolada global tajriba va milliy sharoitlarni qiyosiy tahlil qilish, shuningdek, ishsizlikni qisqartirishga qaratilgan bandlik siyosatini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar va amaliy takliflarni ishlab chiqishda metodologik asos sifatida foydalanildi.

■ TADDIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada ishsizlik va aholi bandligi jarayonlarini o'rganishda kompleks ilmiy-tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tadqiqot tizimli yondashuv asosida amalga oshirilib, mehnat bozori, bandlik va ishsizlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar yagona ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida tahlil qilindi. Tahlil va sintez usullari orqali ishsizlik darajasiga ta'sir etuvchi asosiy



omillar aniqlanib, ularning umumiy ta'siri rasmiy statistik ma'lumotlar asosida baholandi. Induksiya va deduksiya usullari yordamida umumiy nazariy xulosalar hududiy amaliy ko'rsatkichlar bilan uyg'unlashtirilib, Qashqadaryo viloyatining shahar va tumanlari misolida ishsizlik holati tahlili asosida umumlashtirilgan ilmiy xulosalar chiqarildi. Shuningdek, qiyosiy tahlil usuli orqali hududlar kesimida bandlik va ishsizlik ko'rsatkichlari o'zaro solishtirilib, ularning farqlanish sabablari aniqlandi. Shuningdek, monografik kuzatuv usuli alohida hududlarda ishsizlikning kelib chiqish omillari va uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini chuqur tahlil qilishda qo'llanildi. Statistik guruhlash usuli orqali aholining yoshi, jinsi, ta'lim darajasi hamda yashash hududi kesimida ishsizlik holati rasmiy statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilindi. So'rovnomma usullari yordamida esa aholining bandlik masalalariga bo'lgan

munosabati, mavjud muammolar hamda amaldagi ish bilan ta'minlash mexanizmlarining samaradorligi empirik ma'lumotlar asosida baholandi.[10]

■ TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida ishsizlik va aholi bandligi holati hududiy, demografik hamda ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida tizimli tahlil qilindi. Tahlil natijalari ishsizlik darajasi hududlar kesimida bir xil emasligini ko'rsatib, iqtisodiy faollik va ishlab chiqarish salohiyati yuqori bo'lgan hududlarda bandlik ko'rsatkichlari nisbatan yuqori, iqtisodiy imkoniyatlari cheklangan hududlarda esa ishsizlik darajasi yuqoriroq ekanligini aniqladi. Ushbu holat hududiy rivojlanishdagi nomutanosibliklar mehnat bozori holatiga bevosita va sezilarli ta'sir ko'rsatishini rasmiy statistik ma'lumotlar asosida tasdiqlaydi.

1 – jadval.

Qashqadaryo viloyati hududlarida ishsizlik darajasining yillik o'zgarishi

Hududlar	Yillar				
	2020 y	2021 y	2022 y	2023 y	2024 y
Qashqadaryo viloyati (jami)	11,1	10,2	9,3	7,3	5,9
Qarshi shahri	10,7	9,6	8,7	6,3	5,6
Shahrisabz shahri	10,8	10,0	9,0	7,1	5,8
G'uzor tumani	11,2	10,3	9,3	7,5	6,0
Dehqonobod tumani	11,3	10,5	9,5	7,8	6,2
Qamashi tumani	11,2	10,2	9,2	7,4	5,6
Qarshi tumani	11,1	10,4	9,5	7,3	6,1
Koson tumani	11,1	10,2	9,3	7,5	6,0
Kitob tumani	11,1	10,3	9,3	7,3	5,5
Mirishkor tumani	11,1	10,2	9,4	7,3	6,0
Muborak tumani	10,9	9,6	9,0	6,9	5,6
Nishon tumani	11,2	10,6	9,6	7,2	5,6
Kasbi tumani	11,3	10,6	9,6	8,0	6,3
Chiroqchi tumani	11,5	10,4	9,5	7,5	6,1
Shahrisabz tumani	11,1	10,1	9,3	7,3	5,8
Yakkabog' tumani	11,1	10,2	9,2	7,4	5,8
Ko'kdala tumani	-	-	-	7,9	6,0

Jadval ma'lumotlari Qashqadaryo viloyatida 2020–2024-yillar davomida ishsizlik darajasi barqaror pasayish tendensiyasiga ega bo'lganini ko'rsatadi. Viloyat bo'yicha umumiy ishsizlik darajasi 2020-yilda 11,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 5,9 % gacha qisqargan. Bu davrda pasayish 5,2 foiz punktni tashkil etib, mehnat bozorida sezilarli ijobiy siljish yuz berganini tasdiqlaydi. Hududlar kesimida tahlil shuni ko'rsatadiki, shahar hududlarida ishsizlik darajasi tumanlarga nisbatan pastroq shakllangan. Xususan, Qarshi shahri va Shahrisabz shahrida 2024-yilda ishsizlik darajasi mos ravishda 5,6 % va 5,8 % ni tashkil etgan. Bu holat sanoat, xizmatlar sohasi va tadbirkorlik subyektlarining yuqori ulushi bilan izohlanadi.

Aksincha, Kasbi, Dehqonobod va Chiroqchi tumanlarida ishsizlik darajasi viloyat o'rtacha ko'rsatkichidan yuqoriroq bo'lib qolmoqda (2024-yilda 6,1–6,3 %). Ushbu hududlarda iqtisodiy faoliyat asosan qishloq xo'jaligiga tayanishi, sanoat va xizmatlar sektorining etarli darajada rivojlanmaganligi bandlik

imkoniyatlarini cheklayotganini ko'rsatadi. 2022–2023-yillar oralig'ida ishsizlik darajasining keskinroq kamayishi kuzatiladi. Bu holat faol bandlik dasturlari, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, yangi ish o'rinlari yaratish hamda norasmiy bandlikni legallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar ta'siri bilan bog'liq ekanini ko'rsatadi.

Umuman olganda, jadval ma'lumotlari hududiy iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan bandlik ko'rsatkichlari o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjudligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ayrim tumanlarda ishsizlik darajasining nisbatan yuqori saqlanib qolayotgani hududiy bandlik siyosatini differensial yondashuv asosida takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Statistik tahlillar, jumladan Qashqadaryo viloyati shahar va tumanlari bo'yicha 2020–2024-yillar kesimidagi ishsizlik ko'rsatkichlari tahlili shuni ko'rsatadiki, ishsizlik xavfi asosan yoshlar, past malakaga ega shaxslar hamda qishloq hududlarida yashovchi aholi orasida nisbatan yuqori hisoblanadi.



Jadval ma'lumotlariga ko'ra, iqtisodiy faollik va sanoatlashuv darajasi past bo'lgan tumanlarda ishsizlik ko'rsatkichlarining yuqoriroq shakllanishi ushbu guruhlarining mehnat bozorida raqobatbardoshligi etarli emasligini ko'rsatadi. Shuningdek, tahlil natijalari ta'lim darajasi bilan bandlik holati o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjudligini tasdiqlaydi. Xususan, jadvalda ishsizlik darajasi nisbatan past bo'lgan shahar hududlari va iqtisodiy faolligi yuqori tumanlarda oliy va o'rta maxsus ma'lumotga ega aholi ulushining yuqoriligi kuzatiladi. Aksincha, qishloq joylarda va iqtisodiy imkoniyatlari cheklangan hududlarda past ma'lumotli aholi ulushining yuqoriligi ishsizlik darajasining yuqori bo'lishiga sabab bo'layotgani aniqlanadi. Mazkur holat ta'lim sifati va kasbiy malaka darajasi aholi bandligini ta'minlashda muhim omil ekanligini hamda hududiy bandlik siyosatini ishlab chiqishda demografik va ta'lim omillarini inobatga olish zarurligini ko'rsatadi.

O'tkazilgan tahlillar, jumladan Qashqadaryo viloyati shahar va tumanlari bo'yicha 2020–2024-yillar kesimidagi ishsizlik darajasi dinamikasi shuni ko'rsatadiki, ishsizlikni qisqartirishda kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash hamda kasbiy tayyorlash va qayta tayyorlash dasturlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Jadval ma'lumotlariga ko'ra, iqtisodiy faollik va tadbirkorlik subyektlari ulushi nisbatan yuqori bo'lgan shahar hududlari hamda ayrim sanoatlashgan tumanlarda ishsizlik darajasining viloyat o'rtacha ko'rsatkichidan past shakllanishi mazkur omillarning bandlikka ijobiy ta'sirini tasdiqlaydi. Aksincha, iqtisodiy imkoniyatlari cheklangan, kichik biznes va xizmatlar sohasi etarli darajada rivojlanmagan tumanlarda ishsizlik darajasining nisbatan yuqori saqlanib qolayotgani hududiy bandlik siyosatini differensial yondashuv asosida takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari bandlik siyosatini hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuvi, mehnat resurslari tarkibi va ta'lim darajasi kabi omillarni hisobga olgan holda shakllantirish lozimligini asoslaydi hamda ishsizlikni kamaytirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

■ XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari ishsizlik muammosining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ko'p qirrali va tizimli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Tadqiqotda ishsizlik darajasining yuqoriligi aholi turmush darajasining pasayishi, ishlab chiqarish hajmining qisqarishi, daromadlar barqarorligining buzilishi hamda ijtimoiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi ilmiy jihatdan asoslab berildi. Bu holat ishsizlikni nafaqat iqtisodiy, balki muhim ijtimoiy muammo sifatida ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Qashqadaryo viloyati shahar va tumanlari bo'yicha 2020–2024-yillar kesimida o'tkazilgan statistik tahlil natijalari viloyatda ishsizlik darajasi umumiy hisobda barqaror pasayish tendensiyasiga ega ekanini ko'rsatdi. Jumladan, viloyat bo'yicha ishsizlik darajasi 2020-yildagi 11,1 foizdan 2024-yilda 5,9 foizgacha qisqargan. Biroq hududlar kesimida olib borilgan tahlillar shahar va tumanlar o'rtasida sezilarli tafovutlar mavjudligini aniqladi. Iqtisodiy faollik, sanoat va

xizmatlar sohasi rivojlangan shahar hududlarida ishsizlik darajasi nisbatan past bo'lgan bo'lsa, qishloq xo'jaligiga tayanadigan va iqtisodiy imkoniyatlari cheklangan tumanlarda ishsizlik darajasi yuqoriroq saqlanib qolmoqda.

Shuningdek, tadqiqot natijalari yoshlar, past malakaga ega shaxslar hamda qishloq hududlarida yashovchi aholi ishsizlik xavfiga ko'proq duch kelayotganini ko'rsatdi. Ta'lim darajasi va bandlik o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjudligi aniqlanib, oliy va o'rta maxsus ma'lumotga ega aholi qatlamida bandlik darajasi yuqori, past ma'lumotli aholi orasida esa ishsizlik darajasi yuqori ekanligi tasdiqlandi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari ishsizlikni kamaytirishda kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, kasbiy tayyorlash va qayta tayyorlash dasturlarini hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda kengaytirish muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi. Mazkur xulosalar bandlik siyosatini takomillashtirish, hududiy mehnat bozorida nomutanosibliklarni kamaytirish hamda ishsizlikni qisqartirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun ishonchli metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Muallif (lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Qulmurotov Sohijjon Jumaniozovich Qarshi davlat texnika universiteti "Innovatsion iqtisodiyot" kaferdirasi katta o'qituvchisi / Кулмуротов Сохибжон Жуманиезович Старший преподаватель кафедры «Инновационная экономика» Каршинского государственного технического университета / Kulmurotov Sokhibjon Jumaniozovich / Senior Lecturer of the Department of Innovative Economics Karshi State Technical University
e-mail: sohibkulmurotov@gmail.com
<https://orcid.org/0009-0004-4508-5818>

2. Sayimova Nilufar Hamidulla qizi Qarshi davlat texnika universiteti "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrasi magistranti / Саимова Нилуфар Хамидулла кизи Магистрант кафедры «Инновационная экономика» Каршинского государственного технического университета / Sayimova Nilufar Master's student of the Department of Innovative Economics Karshi State Technical University
e-mail: mikoome62@gmail.com
<https://orcid.org/0009-0007-3110-1460>

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Smith A. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. — London: Methuen & Co., 1776.
2. Ricardo D. On the Principles of Political Economy and Taxation. — London: John Murray, 1817.
3. Marshall A. Principles of Economics. — London: Macmillan, 1890.
4. Fisher I. The Theory of Interest. — New York: Macmillan, 1930.



5. Keynes J.M. The General Theory of Employment, Interest and Money. — London: Macmillan, 1936.

6. Samuelson P.A., Nordhaus W.D. Economics. — New York: McGraw-Hill Education, 2010.

7. Abdukarimova R.A. O'zbekiston Respublikasida aholi bandligi va mehnat bozorining rivojlanish tendensiyalari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. — Toshkent, 2021. — №4.

8. World Bank. Jobs and Growth: Pathways to Employment and Economic Development. — Washington, DC: World Bank Group, 2018.

9. International Labour Organization (ILO). Global Employment Trends. — Geneva, 2022.

10. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Aholi bandligi va ishsizlik ko'rsatkichlari bo'yicha statistik ma'lumotlar. — Toshkent, 2020–2025 yy.



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz